

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY-IQTISODIY HAYOT TARAQQIYOTI

Aliyorov Davronbek Tursoat o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti 4- kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20377717>

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr hamda Xuroson hududlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari tahlil qilinadi. Unda davlat boshqaruvi tizimi, yer-suv munosabatlari, hunarmandchilik, savdo yo‘llari, shaharsozlik va dehqonchilikning rivojlanishiga oid masalalar yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ichki va tashqi savdo aloqalarining kengayishi hamda Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotining jamiyat hayotiga ta‘siri ochib beriladi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar asosida Temuriylar davrining Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar davri, Movarounnahr, Xuroson, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik, yer munosabatlari, Buyuk ipak yo‘li, shaharsozlik, iqtisodiy islohotlar, madaniyat, ilm-fan taraqqiyoti.

Kirish

XIV asrning 60-yillariga kelib, mintaqada yuzaga kelgan murakkab vaziyat kuchli va markazlashgan davlat barpo etishni hayotiy zaruriytaga aylantirdi. Amir Temur o‘zining siyosiy raqibi Amir Husayndan farqli o‘laroq, bu davrning bu talabini chuqur his qildi va tarqoq bekliklar o‘rnida yagona, qudratli saltanat barpo etishga muvaffaq bo‘ldi. 1370-yilning bahorida u butun Movarounnahrning oliy hukmdori sifatida e‘tirof etildi. Amir Temur ulkan imperiya asos solgan bo‘lsa-da, o‘zini hech qachon qonuniy “xon” deb e‘lon qilmagan. Buning asl sababi uning nenasab jihatidan chingiziylar sulolasiga mansub emasligi edi. O‘sha davr an‘analariga rioya qilgan holda, Sohibqiron avval Suyurg‘atmishni (1370-1388), keyinchalik uning o‘g‘li Sulton Mahmudni (1388-1402) rasmiy hukmdor sifatida taxtga ko‘tardi. Garchi barcha rasmiy hujjatlar (yorliqlar) va zarb etilgan pullar ushbu shaxslar nomi bilan chiqarilgan bo‘lsa-da, amalda ular davlat boshqaruviga aralashmasdilar. Sohibqiron o‘z hokimiyatini qonuniy jihatdan yanada mustahkamlash maqsadida Amir Husaynning bevasi Saroymulkxonimga uylandi. Saroymulkxonim Chig‘atoy xonadoniga mansub Qazonxonning qizi bo‘lganligi sababli, bu nikoh Temurga “Ko‘ragon” (xon kuyovi) unvonini bergan edi. Shundan so‘ng u davlat hujjatlarida “Amir Temur Ko‘ragoniy” nomi bilan yuritila boshlandi.

Temur saltanati harbiy jihatdan qudratli bo‘lishiga qaramay, iqtisodiy jihatdan o‘ziga xos murakkab tuzilishiga ega edi. Zabt etilgan hududlar boshqaruvini u o‘z farzandlari, nabiralari va ishonchli amirlariga “suyurg‘ol” (mulk) sifatida taqdim etgan. Saltanat hududidagi yerlar 4 yirik ulusga bo‘lingan edi: Katta o‘g‘li Muhammad Jahongir Balx viloyati va 12 minglik qo‘shin, Umarshayxga esa Fors o‘lkasi hamda 10 ming nafar askar berilgan edi. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki bu uluslar mustaqil hisoblangan va bu hududlar Amir Temur vafotidan keyin mustaqil ajralib chiqadi. Amir Temur Markaziy Osiyo hududida tarqoqlikka barham berib, barqaror va markazlashgan saltanat barpo etdi. Uning boshqaruv falsafasi “Kuch adolatdir” degan tamoyiliga asoslangan bo‘lib, bu shunchaki shior emas, balki davlat muhrida muhrlangan edi. Sohibqiron saltanatni (davlatni) boshqarishda yakkahokimlikdan ko‘ra, kengash va uzoqni ko‘zlagan strategik rejalariga tayanib ish tutgan. Uning ta‘kidlashicha, davlat ishlarining asosiy qismi harbiy kuch bilan

emas, balki aql-idrok, maslahat va tadbirkorlik orqali hal etilgan. Ijtimoiy tabaqalanish va adolat mezoni Temur jamiyatni tatibga solish maqsadida aholini 12 ta ijtimoiy toifaga ajratgan. Bu tizim har bir tabaqaning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab berishga xizmat qilgan. Shuningdek, Sohibqiron ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos mexanizmini yaratdi. Temuriylar davrida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda soliq siyosati muhim o'rin tutgan. Sohibqiron dehqonlar va yer egalari uchun rag'batlantiruvchi tizimi joriy etdi. Xususan, yangi yerlarni o'zlashtirgan yoki qarovsiz joylarni obod qilgan shaxslar dastlabki ikki yil davomida soliqlardan sezilarli darajada ozod qilingan. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'payishiga va xalq farovonligining oshishiga olib kelgan. Soliq yig'ishda raiyatning ahvoli ustuvor hisoblangan; aholini ustuvor hisoblangan; aholini chorasiz ahvolga solib qo'yadigan og'ir soliqlar qat'iy qat'iy taqiqlangan.

Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan Temur davlati xalqaro savdo munosabatlarida ham yetakchi bo'lgan, Tarixiy manbalar, xususan, chet ellik sayyohlarning esdaliklari o'sha davrda Samarqand bozorlarida oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj mollari mo'l-ko'l hamda arzon bo'lganidan dalolat beradi. Shahar va qishloqlarning obodligi, suv inshootlarning qurilishi va savdo yo'llar xavfsizligining ta'minlanishi iqtisodiy yuksalishning asosiy omillari bo'lgan.

Amir Temur hukmronlik qilgan davrda davlat boshqaruvi mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. U o'zining qat'iy va uzoqni ko'zlagan siyosati natijasida markazlashgan, qudrati va yaxlit saltanat barpo etishga erishdi. Sohibqiron boshqaruv tizimida nafaqat o'z davrining ilg'or uslublarini, balki o'tmishdagi boy davlatchilik an'analarini ham mohirona birlashtirdi. Shubhasiz, ushbu murakkab va mukammal tizimning tepasida shaxsan o'zi turar edi. Amir Temur bobomiz soliq sohasida soliqlarni adolatli aholiga jabr qilmasdan olgani quvuchli holat hisoblanadi. Soliq aniq mezonlarga asoslanib undirilgan.

Mulkdorlik huquqi: Sohibqiron Amir Temur davrida xususiy mulk daxlsizligi qonun bilan himoyalangan. Savdogarlar va hunarmandlarga berilgan imtiyozlar ichki va tashqi savdoning mislsiz o'sishiga sabab bo'ldi.

Infratuzilma loyihalari: Iqtisodiy yuksalish uchun yo'llar xavsizligi va sug'orish tizimlari (ariq va kanallar) davlat himoyasiga olingan. Sohibqironning "qayerda bir g'isht tushsa, o'rniga o'n g'isht qo'ydiring" degan ko'rsatnamasi iqtisodiy barqarorlikning asosi edi. Buning iqtisodiy asosi shundaki, obod shahar – bu ko'proq hunarmandchilik va ko'proq soliq tushumi demakdir. Mamlakat shu darajada tinch bo'lganki, savdogarlar bemaolol savdo qilgan.

Sohibqiron davlatida iqtisodiy islohotlar faqat boylik to'plashga emas, balki xalqning farovonligini oshirishga yo'naltirilgan edi. U "Raiyat parvarish qilinmasa, saltanat zavol topur" deb hisoblagan.

Markaziy boshqaruv va iqtisodiy nazorat Temur davlatida iqtisodiyotni boshqarish bir necha pog'onali tizimga tayangan. Davlat xazinasini va soliq tushumlarini nazorat qilish uchun maxsus devonlar faoliyat yuritgan.

Devoni buzurg: Bu oliy ijroiya organi bo'lib, uning tarkibidagi yetti vazirdan biri bevosita mamlakatning iqtisodiy holati, soliq yig'implari va xarajatlari uchun ma'sul bo'lgan.

Moliya vaziri (Vaziri mustavfiy): U har bir viloyatdan keladigan daromadlarni hisob-kitob qilib, xazina balansini yuritgan. Bu tizim o'sha davrdagi korrupsiyani minimallashtirish va mablag'larni maqsadli sarflash imkonini bergan. Amir Temurning iqtisodiy islohotlari o'z davrining boshqa hukmdorlaridan farqli o'laroq, aholining to'lov qobiliyatiga asoslangan edi. islohotlar natijasida soliqlarning bir qismi naqd pul shaklida undirila boshlandi. Bu esa ichki bozorda pul aylanish tezligini oshirdi va davlat gaznasining valyuta zaxirasini mustahkamlashga

yordom berdi. Amir Temur saltanatida mutloq hokimiyat o'rnatilgan bo'lsa-da, Davlat boshqaruvida adolat mezonlari va qonun ustuvorligi tamoyillariga qat'iy amal qilingan. Amir Temur davlatida (saltanatida) ni idora etishda qat'iy qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan. Davlat ahamiyatiga molik masalalarni hal etishda ulamolar, fozillar va donishmandlar bilan maslahatlashish an'anasini joriy qilgan. Ya'ni Sohibqiron davlatni boshqarishda olimlar va boshqa tabaqa vakillaridan davlatni boshqarishda maslahat olgan va ularga tayangan holda davlatni boshqargan. Amir Temur bobomiz har doim saltanatni (davlatni) boshqarishda “ Kuch adolatdadir” degan shiorga asoslanib boshqargan. Aslida o'ylab qarajak chindam ham davlatning kuchi uning ichki olib borayotgan siyosatiga bog'liq hisoblanadi. Adolat bilan davlat boshqarilmasa, hukmdor faqat o'zini o'ylasa ichki ziddiyatlar va urushlar kelib chiqadi. Amir Temur bo'lsa uzoqni o'ylagan holda 12 ta ijtimoiy tabaqa vakillariga asoslangan va 12 ta tuzuk bor hisoblanadi. Mazkur maqsadda hududlarga maxsus vakillik kengashlari yuborilgan va ular joylardagi (hududlardagi) ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini, hayotini o'rganish va eng asosiy o'sha hududlardagi muammolarni bartaraf qilishga (etish jarayonlarini) ko'rish bilan shug'ullangan. Ya'ni aholiga katta yordam bergan. Sohibqiron o'zining davlat apparatini 7 ta asosiy vazirlik (vazorat) shaklida tashkil etdi va 12 ta tuzukga asoslanib boshqardi.

Bosh vazir mahkamasi: Davlat va fuqarolik ishlari bo'yicha.

Mudofaa vazirligi: Harbiy harakatlar va qo'shin ta'minoti.

Moliya vazirligi: Iqtisodiy masalalar,

Saroy vazirligi: Saroy ichki tartib-qoidalari

Adliya vazirligi: Qozixonalar va huquqiy nazorat

Davlat xavfsizligi: Mushriflar boshchiligidagi maxfiy nazorat

Tashqi ishlar vazirligi (devoni racoyil): Diplomatik aloqalar.

Ushbu muassalar aholi soni, savdo-sotiq, madaniy rivojlanish va soliq tushumlari bo'yicha muntazam hisobotlar tayyorlab, hukmdorni davlatdagi real holatdan xabardor qilib turgan. Temuriylar davrida dehqonchilikning asosi bo'lgan irrigatsiya tizimini kengaytirishga davlat darajasida ahamiyat berilgan. Amir Temur topshirig'iga binoan Murg'ob vohasida yirik suv inshootlari qurilgan bo'lsa, qadimiy Angor kanalining tog'li qismlarida murakkab qazish ishlari olib borilgan. Tarixchi G'iyosiddin Alining ma'lumotlariga ko'ra, Sohibqiron Hindiston safaridan qaytishda Kobul hududida ham ulkan gidrotexnik inshootsuv kanali barpo ettirgan. Poytaxt Samarqand va Shahrisabz shaharlarining suv ta'minoti tubdan yaxshilanib, shahar ichidagi deyarli bohar bir hovliga ariqlar orqali obihayot kirib borishi ta'minlangan. Suv manbalaridan uzoq bo'lgan hududlarda esa o'ziga xos muhandislik yechimi bo'lgan korizlar (yerosti suv yo'llar) tizimi samarali qo'llanilgan.

Movarounnahrning unumdor tuproqlarida bu davrda donli ekinlar, xususan, bug'doyning serhosil navlari yetishtirilgan. Manbalarda unumdor tuproqlarda bu davrda donli ekinlar, xususan, bug'doyning “gandumi ob” (sug'orma), “gandumi safidcha” (oq bug'doy), “gandumi surxoki”, va ayniqsa “ tuya tishi” kabi navlari mashhur bo'lganligini ko'rsatiladi. Zafarshon, Qahqadaryo, Toshkent vohalari, hamda Farg'ona vodiysi saltanatning asosiy agrar markazlari sifatida dehqonchilik madaniyatning yuqori cho'qqisiga chiqqan edi. Termizda yetishtirilgan bug'doy Xorazmga ham yuborilgan edi. Amir Temur savdo yo'llarini Oltin O'rda (shimol) hududidan Movarounnahr (janub) hududiga ko'chirishga intilgan. Bu strategik harakat Samarqandni dunyoning savdo chorrahasiga aylantirdi.

G'arbiy yo'nalishi: - Eron, Ozarbayjon orqali Kichik Osiyo va Yevropaga.

Sharqiy yo'nalish: - Xitoy (xonbaliq) bilan ipak va choy savdosi.

Janubiy yo‘nalish: - Hindiston bilan ziravorlar va qimmatbaho toshlar savdosi.

Temuriylar davrida har bir yirik shahar ma‘lum bir mahsulot turiga ixtisoslashgan edi: - Samarqand: Qog‘oz ishlab chiqarish (Samarqand qog‘ozi butun dunyoda mashhur bo‘lgan), shoyi va baxmal.

- Buxoro: Zargarlik buyumlari va diniy adabiyotlar savdosi

- Hirot: Badiiy hunarmandchilik, miniatyura va gilamchilik.

Bozorlar “Rasta” va “Taq” (Gumbaz) tizimida qurilgan. Masalan, Buxorodagi “Taqi Sarrofon” yoki “Taqi Zargaron” bugungi kungacha saqlanib qolgan me‘moriy obidalaridir.

Temuriylar davlatida savdo tasodifiy jarayon emas, balki qat‘iy qonuniyatlarga asoslangan tizim edi. Amir Temurning “Tuzuklar” asarida savdogarlarga munosabat alohida bandlar bilan belgilangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda mamlakatda markazlashgan davlat boshqaruvi shakllanib, savdo-sotiq, hunarmandchilik va dehqonchilik sezilarli darajada rivojlandi. Shaharlarning obod qilinishi, karvon yo‘llarining tiklanishi hamda ichki va tashqi savdoning kengayishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamladi. Temuriy hukmdorlar tomonidan ilm-fan, madaniyat va me‘morchilikka katta e‘tibor qaratilgani jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, Samarqand va Hirot kabi shaharlar yirik ilmiy va madaniy markazlarga aylandi. Shu bois, Amir Temur va Temuriylar davri nafaqat siyosiy jihatdan, balki iqtisodiy va madaniy taraqqiyot nuqtayi nazaridan ham muhim tarixiy davr sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli”. – T.: Fan, 1968
2. Mixail Ivanin. “Ikki buyuk sarkarda – Chingizxon va Amir Temur”. T. 2003
3. Amir Temur. Temur Tuzuklar. T.: Sharq- 2013
4. Amir Temur jahon tarixida – T.: Sharq,1996
5. Alimov B. “Amir Temur va Temuriylar davrida xalqaro diplomatik aloqalar”.- T.: Adolat, 2012.
6. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” T.: 1996
7. Ibn Arabshox “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” T.: “Mehnat” 1992 y 260-270 b